Bosh miya o'smasi bo'lgan maktab o'quvchilariga zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil etish.....	552
<i>Xakimova Gulshat Abdusalomovna, Nurmuhammedova Ruxshoda Mirsodiq qizi</i>	

Traits of Oral Fluid Biochemistry and Physical Chemistry in Children Exhibiting Abnormalities Post-Uranoplasty	557
Anvarova Muhtasar Anvarovna	
O'simliklarning abiotik stresslarga chidamliligini oshirishda crispr/cas texnologiyasining ahamiyati	561
Saidmurodov Saidali Chori o'g'li, Lutfullayev Nodir Abdusattor o'g'li, Turayev Ozod Sunnataliyevich, Dulanzarov Abror Anvar o'g'li, Xayitova Shahlo Davlatovna	
Zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini xorijiy tajribalar asosida boshqarish tizimini takomillashtirish	566
Sotimova Barno Marufjonovna	
Tasviriy san'at fanini o'qitishda milliy san'at elementlaridan foydalanishning ayrim metodlari	570
Abdullayev Sayfulla Fayzullayevich, Abdullayev Suxrob Sayfullayevich, Zikrillayeva Visola Hamrayevna	
Метод, основанный на построении симметрии при делении угла с недоступной вершиной	576
Эсонов Мунавваржон Муқимжонович	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni muhandislik faoliyatiga tayyorlash pedagogik muammo sifatida	579
Hamraqulov Yorqin Murtazaqulovich	
Internet tizimida muloqotning gendorologik tipologiyasi	584
Raxmonova Barno Odilovna	
Bolalarga xos nutq muhitida etiketning ahamiyati	587
Temirova Nargiza Davlat qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda virtual reallik asosidagi texnologiyalardan foydalanish	590
Choriyeva Lobar Fayzullo qizi, Teshaboyeva Zamira Sabirovna, Safarov Azamat Rasul o'g'li	
Hozirgi kun pedagogi	594
Dehqanova Muborakxon G'iyeziddin qizi	
"Avesto"dagi ta'limiy-axloqiy qarashlarning nazariy asoslari va pedagogik ahamiyati	598
Ibragimova Farangiza Oybekjon qizi	
Ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-pedagogik muammolarning shakllanish omillari va bartaraf etish yo'llari	602
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	
Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro reytinglarga tayyorlashda strategik menejmentning o'rni va ahamiyati	607
Mannonova Barno	
Scientific-Theoretical Bases of Developing Students' Creative Ability Through Folk Practical Art	611
Ruziyeva Mekka Shukhrat kizi	
3-sinf ona tili darslarida integratsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	615
Jurayeva Dildora Ilhom qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi	
Kurash mashg'ulotlari jarayonida texnik-taktik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik asoslari	618
Soatov E. M.	
Talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishga asoslangan dasturiy ta'minot yaratish mohiyati	623
Janabergenova Aysuliy Jaksilikovna	
Maxsus pedagogning kasbiy kompetentligi: zamonaviy yondashuvlar va muammolar	626
Shodiyeva Gulchiroy Nurqosimovna	
O'zbek va qoraqalpoq tillarini integratsiyalashgan holda o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni	631
Mapruza Embergenova	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatini shakllantirishda neyropedagogik usullardan foydalanishning ahamiyati	636
Jumayeva Maxbuba O'ktam qizi	
Inklyuziv ta'lim muhitida musiqa darslarini tashkil etishning uslubiy asoslari	641
Narzikulov Javohir Ikromovich	
Диагностический потенциал формирования критического мышления в оценке нравственной воспитанности студентов педагогических вузов	645
Азимова Гулрухбону, Абдувалиева Мухайё	



Musiqa darslarida 4K kompetensiyalarini rivojlantirishning imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlari....	652
<i>Ochilova Mohinur</i>	
Oliy ta'limda fransuz tilini o'qitishda qr-kod texnologiyalarining samaradorligi	656
<i>Muzaffarova Nodira Mardonovna</i>	
Смарт-технологии как инструмент повышения эффективности управления	660
<i>Байбаева Мухайё Худайбергеновна, Дехконова Мохларойим Бахтиёржон кизи</i>	
Odam markaziy asab tizimi taraqqiyoti va uni rivojlantirishning amaliy yechimlri.....	664
<i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>	
Mentimeter dasturi va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	669
<i>Djabbarova Xabiba Kuvandikovna</i>	
Talabalarda fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda yangi renessans pedagogikasining o'rni.....	673
<i>Qlicheva Go'zal Chorshanbiyevna</i>	
Kognitiv rivojlanish zamonaviy ta'lim nazariyasida kompleks fenomen sifatida	678
<i>Abdullayeva Madina Baxtiyor qizi</i>	
Kursantlarning maxsus chidamkorligini oshirishda qo'llaniladigan vosita va usullar	681
<i>I. B. Bobomuratov</i>	
The Main Aspects of the Development of Digital Literacy in Higher Pedagogical Education	685
<i>Yusupova Go'zal Oybek qizi</i>	
Conceptual Approaches to Understanding Fanaticism Among Female Adolescents.....	689
<i>Sobirova Sojidxon Akramjon qizi</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarida basketbol texnika va taktikasini shakllantirishning pedagogik asoslari.....	692
<i>Bobojonov Nozimjon Ne'matjonovich, Sirojiddin Nasriddinov Salohiddin o'g'li</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa nazariyasi va solfedjio darslarining pedagogik xususiyatlari	695
<i>Bobojonova Zeboxon Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatni rivojlantirish ..	699
<i>Istamov Zavqiddin Sa'dulloevich</i>	
Talabalar identiteti va ularga ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining global ahamiyati	702
<i>N. T. Tojiboyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishning zamonaviy usullari	707
<i>Narzullayev Mavlonbek Zikrillo o'g'li, Ostonov Zafar Zamonovich</i>	
Ta'lim metodlari va usullarini modernizatsiya qilish asosida ilmiy tadqiqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	710
<i>Olimov Temir Xasanovich</i>	
Changes in Adolescents' Communication Under the Influence of Social Media: Emotional Intelligence and Internet Addiction Issues	715
<i>Salomov Shamsiddin Sabokhiddin Ugli</i>	
O'smir qizlarning jismoniy rivojlanishini takomillashtirishda defile mashqlaridan foydalanish metodikasi ...	720
<i>Shaxbazova Gulrux Orifjon qizi, Abdullayeva Maxbuba</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning divergent fikrlashini shakllantirish metodikasi.....	724
<i>Ubaydullayeva Nazokat Ibodullo qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish: nazariy asoslar, amaliy modellar va innovatsion yondashuvlar	728
<i>Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi</i>	
Talaba-yoshlar jismoniy madaniyat va sportini rivojlantirishning strategik imkoniyatlari	733
<i>Yusupxo'jayev Oxunjon Shuxrat o'g'li</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari.....	737
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Компенсация трудностей в обучении детей младшего школьного возраста, находящихся на длительном лечении	742
<i>Алимова Нигора Исраиловна, Холлиева Нодира Хайтмуратовна</i>	

Формирование профессиональных компетенций будущих художников через освоение узбекского орнамента в системе заданий по композиции.....	745
Д. Б. Бабаева	
Методика и подходы обучения речи в школьной практике	750
Шарипов Одилжлон Гуломжон угли	



MENTIMETER DASTURI VA UNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Djabbarova Xabiba Kuvandikovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

“Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrası dosenti (PhD)

Annotatsiya: Zamonaviy interaktiv platformalardan biri bo'lgan Mentimeter dasturining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda dastur funktsionalligi, xususan, testlar, so'rovnomalar, so'z buluti va ochiq savollar imkoniyatlarining o'quv samaradorligiga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, platformadan dars jarayonida foydalanish orqali o'quvchilar faolligini oshirish, real vaqt rejimida fikr-mulohazalarni yig'ish hamda ta'lim samaradorligini ta'minlash masalalari yoritilgan. Pedagogik tajriba natijalari Mentimeter dasturining interaktiv ta'lim muhitini shakllantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Mentimeter, interaktiv ta'lim, raqamli pedagogika, onlayn so'rov, ta'lim texnologiyalari, talaba faolligi.

Abstract: The role and significance of Mentimeter as a modern interactive platform in the educational process are analyzed. The study examines the impact of the platform's functionality, including quizzes, surveys, word clouds, and open-ended questions, on learning effectiveness. Particular attention is given to enhancing student engagement, collecting real-time feedback, and improving overall educational outcomes through classroom integration. The results of the pedagogical experiment confirm the effectiveness of Mentimeter in creating an interactive learning environment.

Key words: Mentimeter, interactive education, digital pedagogy, online survey, educational technologies, student engagement.

Аннотация: Анализируется роль и значение программы Mentimeter как одной из современных интерактивных платформ в образовательном процессе. В исследовании рассматривается влияние функциональных возможностей программы, включая тесты, анкеты, облака слов и открытые вопросы, на эффективность обучения. Особое внимание уделено вопросам повышения активности обучающихся, сбора обратной связи в режиме реального времени, а также обеспечению качества образовательного процесса при использовании платформы на занятиях. Результаты педагогического опыта подтверждают эффективность программы Mentimeter в формировании интерактивной образовательной среды.

Ключевые слова: Mentimeter, интерактивное образование, цифровая педагогика, онлайн-опрос, образовательные технологии, активность студентов.

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimida yangi pedagogik yondashuvlarni shakllantirmoqda. An'anaviy dars o'tish uslublari bilan bir qatorda, o'quvchilarning faolligini oshiruvchi interaktiv platformalardan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday zamonaviy vositalardan biri – Mentimeter dasturidir.

Mentimeter – bu onlayn platforma bo'lib, interaktiv taqdimot va so'rovnomalar yaratish, auditoriya bilan real vaqt rejimida muloqot qilish imkonini beradi. U foydalanuvchilarga an'anaviy slaydlarga qo'shimcha ravishda ko'p tanlovli savollar, masshtablar va ochiq so'rovlarni qo'shish imkoniyatini taqdim etadi. Ushbu dastur veb-brauzer orqali ishlaydi va alohida dasturiy ta'minot o'rnatishni talab etmaydi. Dastur Zoom, Microsoft Teams, Hopin va PowerPoint kabi boshqa raqamli platformalar bilan integratsiya qilingan holda ishlaydi. 2014-yilda Shvetsiyada Johnny Warström va Niklas Ingvarsson tomonidan ishlab chiqilgan ushbu dastur bugungi kunda ta'lim, biznes va konferensiyalar sohasida keng qo'llanilmoqda ^[2].

Uning asosiy afzalligi soddalikda namoyon bo'ladi, ya'ni ishtirokchilar maxsus dastur o'rnatmasdan, havola yoki QR-kod orqali istalgan qurilma (telefon, planshet, kompyuter) vositasida jarayonga ulanishlari mumkin. Javoblar ekranda jonli ravishda vizuallashtirilishi esa mavzuni chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa darsni yoki ma'ruzani an'anaviy bir tomonlama axborot uzatishdan ko'p tomonlama muloqotga aylantiradi ^[3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ta'lim jarayonida interaktiv texnologiyalarning o'rni ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan. Habel va Stubbs 2014-yilda mobil ovoz berish texnologiyalarining katta auditoriyalarda talabalar ishtirokini oshirishdagi samaradorligini asoslab bergan. Ularning tadqiqotida real vaqt rejimida javob berish imkoniyati talabalarning darsga jalb etilish darajasini sezilarli oshirishi qayd etilgan. Hill 2020-yilda Mentimeter platformasining aynan katta auditoriyalar bilan ishlashda samarali vosita ekanligini ta'kidlab, uning interaktivlikni kuchaytirish orqali ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy asosda tahlil qilgan.

Raqamli pedagogika doirasida olib borilgan tadqiqotlarda interaktiv platformalarning ta'lim samaradorligiga ta'siri alohida o'rin egallaydi. Mentimeter rasmiy blogida platformaning o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi muloqotni kuchaytirishi, real vaqt rejimida fikr almashish imkonini berishi hamda o'quvchilarning faolligini oshirishi qayd etiladi. Qizi va Jabbarova 2024-yilda innovatsion texnologiyalarning yoshlar dunyoqarashiga ta'sirini tahlil qilib, raqamli vositalar, xususan, interaktiv platformalar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Murtazaeva va hammualliflar 2025-yilda bilimlarni formalizatsiya qilish va intellektual tizimlar doirasida raqamli texnologiyalarning ahamiyatini yoritib, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurligini asoslab beradi. Kuvandikovna va Islomovna 2025-yilda tilshunoslikda axborot texnologiyalarining o'rnini tadqiq qilib, interaktiv vositalar o'quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Ushbu ilmiy qarashlar Mentimeter kabi platformalarning ta'lim jarayonida qo'llanishi nazariy va amaliy jihatdan asoslanganligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tavsifiy-tahliliy va pedagogik tajriba metodlaridan foydalanildi. Mentimeter platformasining funksional imkoniyatlari o'rganilib, ularning ta'lim jarayonida qo'llanish holatlari tahlil qilindi. Tajriba oliy ta'lim muassasasi talabalari ishtirokida o'tkazildi. Eksperiment guruhida Mentimeter vositalari qo'llanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy usullardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. O'qituvchi tomonidan platformada interaktiv taqdimot yaratildi.
2. Talabalar menti.com sayti orqali maxsus kod yordamida tizimga ulandilar.
3. Savollar (Multiple Choice, Word Cloud, Open Ended, Scale) orqali talabalar fikri yig'ildi va real vaqt rejimida tahlil qilindi.

Mentimeter bir qator samarali funksiyalar bilan jihozlangan bo'lib, ular so'rovnomalar va ovoz berish turlarini o'z ichiga oladi. Jumladan:

1. Multiple Choice (tanlovli savollar) – test va ovoz berish uchun.
2. Word Cloud (so'zlar buluti) – ishtirokchilarning qisqa so'z yoki iboralari to'planib, eng ko'p takrorlanganlari kattalashib ko'rsatiladi. Bu yangi mavzu bo'yicha dastlabki tushunchalarni aniqlashda juda foydali.
3. Open Ended (ochiq savollar) – erkin fikr va mulohazalarni yig'ish uchun, ya'ni talabalar o'z fikrlarini erkin yozadilar va barcha javoblar ekranda namoyish etiladi.
4. Scale va Rating – 1 dan 10 gacha bo'lgan shkalada baholash va fikr darajasini aniqlash imkonini beradi.
5. Viktorina (Quiz) – o'quvchilarni raqobatga undovchi bilim o'yini, to'g'ri javob berish tezligi ham baholanadi ^[4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Mentimeterning eng muhim afzalligi – u har bir o'quvchini dars jarayoniga jalb qilishidir. An'anaviy darsda faqat bir nechta talaba faol qatnashsa, Mentimeter yordamida butun guruh bir vaqtning o'zida javob berishi, o'z fikrini bildirishi mumkin. Ayniqsa, uyatchan yoki o'zini namoyon qila olmaydigan o'quvchilar uchun bu ulkan imkoniyat hisoblanadi, chunki ular anonimligi saqlangan holda o'z fikrlarini erkin ifoda eta oladilar.

O'qituvchi uchun Mentimeter juda qimmatli vosita bo'lib, u dars davomida o'quvchilarning mavzuni qanchalik tushunganini zudlik bilan aniqlay oladi. Savol berilib, natijalar ekranda paydo bo'lgach, o'qituvchi qaysi mavzular yaxshi o'zlashtirilganini, qaysilariga esa yana e'tibor qaratish kerakligini ko'radi. Bu o'qituvchiga darsni moslashuvchan ravishda boshqarish imkonini beradi.



Mentimeter platformasidan foydalanish jarayonida olingan natijalar diagrammalar orqali vizuallashtiriladi. Bu o'qituvchiga dars jarayonini darhol tahlil qilish, talabalar javoblaridagi umumiy tendensiyalarni aniqlash hamda o'quv jarayonini operativ boshqarish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Mentimeter dasturi ta'lim jarayonida quyidagi yo'nalishlarda samarali qo'llaniladi:

1. Dars boshida talabalarning mavzu bo'yicha avvalgi bilimlarini aniqlashda pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, "So'zlar buluti" (Word Cloud) funksiyasi orqali talabalar bilim darajasi va tushunchalari tezkor baholanadi.
2. Dars jarayonida talabalar faolligini oshirish va interaktiv muhit yaratishda muhim rol o'ynaydi. Talabalar savollarga javob berish, fikr bildirish va muhokamalarda ishtirok etish orqali dars jarayonining faol subyektiga aylanadi. Ayniqsa, an'anaviy darslarda kamroq faollik ko'rsatadigan talabalar ham javob berish imkoniyati tufayli jarayonga faolroq jalb etiladi.
3. Dars yakunida baholash va refleksiya o'tkazish uchun samarali vosita hisoblanadi. Test savollari, reytingli baholash orqali mavzuni qay darajada o'zlashtirganini aniqlanadi. Shu bilan birga, refleksiya savollari o'quvchilarning dars haqidagi fikr-mulohazalarini bilish, kuchli va zaif jihatlarni aniqlashga yordam beradi.

Xususan, tajriba shuni ko'rsatdiki, "Word Cloud" funksiyasi qo'llanganda talabalarning mavzuga qiziqishi o'rtacha 40% ga oshdi. Masofaviy va aralash ta'lim sharoitida platforma o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi aloqani mustahkamlab, interaktivlikni ta'minlaydi.

Umuman olganda, Mentimeter platformasi interaktiv, talaba markazli ta'lim yondashuvini amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. U o'quv jarayonida talabalar faolligi, mustaqil fikrlashi va motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Dasturning asosiy afzalliklari foydalanishning oson va qulayligi, maxsus texnik bilimlarni talab qilmasligi, real vaqt rejimida natijalarni vizuallashtirish va tahlil qilish imkoniyati borligi, barcha ishtirokchilarning teng qatnashishini ta'minlashi, talabalar uchun javob berish sharoitining mavjudligi, ichki motivatsiya va darsga bo'lgan qiziqishni oshirishi hamda masofaviy ta'lim formatiga to'liq mos kelishidan iborat. Shuningdek, dastur ma'lumotlarni eksport qilish, anonimlikni saqlash va ovoz berish cheklovlarini sozlash kabi qo'shimcha imkoniyatlarga ega ^[5].

Olingan natijalar Mentimeter platformasining zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, talaba markazli ta'lim tamoyillari bilan uyg'unligini ko'rsatdi. Platforma talaba markazli ta'limni amalga oshirishda muhim vosita bo'lib, uning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari boshqa interaktiv ta'lim texnologiyalari bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlarga mos keladi va ularni to'ldiradi.

Biroq, dasturdan foydalanishda internetga bog'liqlik va bepul versiya imkoniyatlarining cheklanganligi kabi omillarni ham e'tiborga olish lozim. Internet tezligi past bo'lgan hududlarda yoki barqaror aloqa mavjud bo'lmagan auditoriyalarda interaktivlik darsning dinamikasini buzishi mumkin. Shuningdek, bepul versiyada savollar sonining cheklanganligi o'qituvchini pedagogik dizaynni juda qat'iy va qisqa rejalashtirishga majbur qiladi. Bu bir tomondan darsning sustligini oshirsa, ikkinchi tomondan chuqur tahliliy savollarni cheklab qo'yishi mumkin. Bu cheklovlar ta'lim jarayonini rejalashtirishda nazarda tutilishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Mentimeter dasturi zamonaviy ta'lim jarayonining muhim interaktiv vositalaridan biri hisoblanadi. U o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotni faollashtirib, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Dasturning pedagogik salohiyati talabalarning mustaqil fikrlash ko'lamini kengaytirish va dars jarayonida demokratik muhitni qaror toptirish bilan belgilanadi. Biroq, raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishda "raqamli pedagogik kompetentlik" tushunchasi birinchi o'ringa chiqadi. Ya'ni, o'qituvchi platformaning texnik cheklovlarini (internet tezligi, litsenziya cheklovlari) inobatga olgan holda, pedagogik ssenariyni moslashtirishi zarur. Mazkur texnologiya ta'limning maqsadi emas, balki sifatli natijaga erishish vositasi sifatida qaralgandagina, u boshqa interaktiv metodlar bilan sinergik samaradorlikni namoyon etadi.

Raqamli pedagogika sharoitida ushbu platformadan oqilona foydalanish ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Kelajak tadqiqotlarida ushbu platformaning uzoq muddatli o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ta'sirini chuqurroq o'rganish tavsiya etiladi.

Shunday qilib, Mentimeter platformasi ta'limning sinxron (bir vaqtda darsda) va asinxron (mustaqil topshiriq) shakllarini bog'lovchi ko'prik vazifasini o'taydi. Tadqiqotda aniqlangan 40% lik qiziqish o'sishi nafaqat texnologik yangilik, balki talabaning darsda o'z fikri qadrli ekanligini his qilishi (psixologik omil) natijasidir. Bu esa zamonaviy pedagogikada o'qituvchining rolini "axborot yetkazuvchi"dan "moderator-fasilitator"ga o'zgarishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2023). Raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent.
2. Habel, C., & Stubbs, M. (2014). Mobile phone voting for participation and engagement in a large compulsory law course. *Research in Learning Technology*, 22(1). <https://doi.org/10.3402/rlt.v22.1953>
3. Hill, L. (2020). Book Review: Mentimeter: A Tool for Actively Engaging Large Lecture Cohorts. *Academy of Management Learning and Education*, 19(2), 288–291. <https://doi.org/10.5465/amle.2019.0129>
4. Mentimeter Official Blog. (n.d.). Empowering presenters and students in online teaching. Retrieved from <https://www.mentimeter.com/blog/education/empowering-presenters-and-students-in-online-teaching>
5. Qizi, B. M. F., & Jabbarova, X. K. (2024). Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va yoshlar dunyoqarashi. *Science and Innovation*, 3(Special Issue 19), 857–858.
6. Murtazaeva, U. I., Djabbarova, Kh. K., Hubiev, M., & Khudoynazarova, E. (2025). Ontologii i formalizatsiya znaniy v intellektualnykh sistemakh. *Luchshiy intellektualnyye issledovaniya*, 55(3), 116–129.
7. Kuvandikovna, J. X., & Islomovna, A. F. (2025). Tilshunoslikda axborot texnologiyalarining o'rni. *Yangi O'zbekiston: Yangi tadqiqotlar jurnali*, 3(5), 646–649.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.